

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

UO‘K-631.6.633.5

**SP-1607 INGICHKA TOLALI G‘O‘ZA CHIGITI DALA UNUVCHANLIGIGA
STIMULYATORLARNING TA‘SIRI**

Qulmurotov Baxtiyor Eshmuminovich

Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot
instituti Tayanch doktoranti,
b.qulmurotov@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0001-3275-9324>

Xo‘shboqov Bahodir Erkin o‘g‘li

Ingichka tolali paxtachilik ilmiy – tadqiqot institut tayanch doktoranti
xoshboqovbahodir5@gmail.com

Annotatsiya: Olib borilgan tajribada ingichka tolali SP-1607 g‘o‘za navining nihollarini ertaki va baravj undirib olish maqsadida chigitga ekish oldidan Uzbiogumin va Immunoaktiv stimulyatorlari bilan ishlov berilib chigitlarning dala unuvchanligi yuqori bo‘lganligi kuzatilgan.

Abstract: In the conducted experiment, to obtain early and vigorous seedlings of the fine-fiber cotton variety SP-1607, cotton seeds were treated with Uzbiogumin and Immunoactive stimulants before sowing. As a result, high field germination rates of the seeds were observed.

Аннотация: В проведенном эксперименте с целью получения раннего и дружного прорастания всходов тонковолокнистого хлопчатника сорта СП-1607 семена перед посевом обрабатывали стимуляторами Узбиогумин и Иммуноактив, в результате чего наблюдалас высокая полевая всхожесть семян.

Kalit so‘zlar: Stimulyator, chigit, kun, variant, davr, ekish, unib chiqqan.

Keyword : Stimulant, seed, day, option, period, sowing, sprouted.

Ключевые слова: Стимулятор, семя, ден, вариант, период, посев, проросший.

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi va «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining: 2020 yil hosilidan boshlab Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlarida ingichka tolali g‘o‘za navlarini joylashtirish va yetishtirishni keng yo‘lga qo‘yish;

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

ingichka tolali g‘o‘zaning “istiqbolli nav” sifatida ekib kelinayotgan navlarini ularning ishlab chiqarishdagi ko‘rsatkichlaridan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya qilingan qishloq xo‘jaligi ekinlarining davlat reestriga kiritish, Surxondaryo viloyatida 40 ming gektar maydonda ingichka tolali g‘o‘za navlarini ilmiy asoslangan holda joylashtirish va keng ishlab chiqarish sinovini olib borish, ijobiy natijalar olingan taqdirda keng ko‘lamda joriy qilish ta’kidlangan. Shu bois chigitlarni ertaki va sifatli undirib olish muhim rol o‘ynaydi. Urug‘lik chigit. Unuvchanlikni aniqlash usullari «o‘zstandart» agentligining 2018 yil 28 sentabrdagi 05-8294-sonli qarori bilan tasdiqlangan va joriy etilgan.

2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»⁶, 2022 yil 28 yanvardagi PQ-106 son «Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlarida urug‘chilik tizimini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligining sug‘oriladigan maydonlarida tejamkor sug‘orish texnologiyalarini kengroq joriy etish va sug‘orish suvlaridan samarali foydalanish bo‘yicha dolzarb vazifalar belgilab berilgan. Shu sababli urug‘lik uchun yetishtiriladigan g‘o‘za navlarining maqbul sug‘orish va oziqlantirish me‘yorlarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib hisoblanadi.

Adabiyotlar sharxi. Sh.Abdualimov ta’kidlashicha, stimulyatorlar bilan kuzgi bug‘doy va g‘o‘zaga ishlov berilganda don va chigitning dala unuvchanligi 10-15 %ga ortib, 2-3 kun erta unib chiqadi, nihollarning vilt, gommoz va ildiz chirish kasalliklariga chidamliligi ortadi, ildiz tizimini baquvvat rivojlanishi natijasida qurg‘oqchilik sharoitida ham o‘simlikning maqbul o‘sishi va rivojlanishini taminlaydi, ko‘saklar ochilishi 15-20 %ga, pishib yetilishi 3-5 kunga tezlashadi, paxta va dondan 2-5 s/ga yuqori hosil olishga va un sifatining ortishiga, tolaning texnologik sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanishiga erishiladi [1; 186-187 b.].

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги «Ўзбекистон Республикасида қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида» ПФ-5853-сон фармони

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

Sh.Abdualimov Toshkent viloyati sharoitida g‘o‘zaning Oqdaryo-5 o‘rta tolali navining chigitiga Nitrolin 6-8 l/t, TJ-85 20-30 g/t, XS-2 15-20 g/t me‘yorlarida ishlov berilganda, nihollarning unib chiqishi jadallashgan. [2; 25-26 b.].

B.E.Qulmurotov, M.Q.Lukov, K.M.Tadjiyev, S.G.Johonov, X.S.Amirovlarning fikricha 70-75-65% sug‘orish rejimida yetishtrilgan ingichka tolali SP-1607 g‘o‘za navi chigitini ekishdan oldin va vegetatsiya davrida Uzbiogumin va Immunoactiv stimulyatoridan foydalanilganda lo‘chatlar unib chiqishi yaxshilanib o‘sishi va rivojlanishi nazoratga nisbatan farq qilib hosildorlik oshib, tola sifati ham yaxshilangan. [5; 389-395 b.].

Sh.Abdualimov, F.Abdullayev, T.Xudayqulovlarning ma‘lumotlariga ko‘ra, Toshkent viloyatining sharoitida chigitni ekish oldidan hosildor stimulyatori bilan chigitni 0,6 l/t va shonalash davrida 0,4 l/ga va gullash davrida 0,6 l/ga me‘yorlarda qo‘llanilganda ko‘chatlarning unib chiqish darajasi 18,9%, o‘simlik bo‘yi 6,8 sm, hosil shoxi 1,1 donaga, ko‘saklar soni 2-3 donaga ko‘payganligi va ko‘saklarni ochilishi tezlashganligi va hosildorligi nazoratga nisbatan 3,3-3,9 foizga ko‘p bo‘lganligi aniqlandi. [3; 335-338 b.].

Abdualimov Sh.Kh., Qulmurotov B.E larning ta‘kidlashicha ingichka tolali SP-1607 g‘o‘za navi chigitiga Uzbiogumin va Immunoaktiv stimulyatorlari bilan ishlov berilganda chigitlarning dala unuvchanligi 2-3 kun oldin va 10-12 % .yuqori bo‘lgan. [4; 326-331 b.].

B.Muxammadiyev chigitga o‘stiruvchi moddalar Oksigumat, Vitavaks 200FF va Bronotak bilan ishlanganda, chigitni unib chiqishi 1-2 kunga tezlashib, paxta hosili nazoratga nisbatan 0,5-1,7 s/ga oshganligi aniqlandi. [8; 10-11 b.].

S.Voxidov izlanishlarida, chigitlarga ekishdan oldin Vitavaks 200FF 5-6 l/t va Oksigumat bilan 0,75-1,0 l/t me‘yorlarda ishlov berilganda, g‘o‘zani o‘sishi, rivojlanishi tezlashib, 50% o‘simliklarni pishishi 3 kunga ertaroq bo‘lgan holda, paxta hosili mutanosib ravishda 1,3-2,3 s/ga va 1,0-1,3 s/ga ortgani aniqlangan. [6; 16-17 b.].

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

I.Sh.Xusanov tajribalarda g‘o‘zaning S-6524 navi ochiq dalada va plyonka ostida o‘stirilganda chigit ekishdan oldin Mival stimulyatori bilan 6 g/t me‘yorida, g‘o‘zani gullash davrida Piks 1,5 l/ga va pishishda Kompozan 4,5 l/ga me‘yorda qo‘llanilganda tola sifati yaxshilangan va paxta hosili ortganligi aniqlangan. [10; 197-200 b.].

U.Niyazmetov S-6524 chigitlarga Nitrolin va Roslin preparatlari bilan ishlov berilganda, nihollarni erta va to‘liq unib chiqishi, hamda ko‘chat qalinligi bilan bir qatorda o‘simliklarni o‘sishi, rivojlanishi tezlashib, nazoratga nisbatan 3,3-4,3 s/ga qo‘shimcha paxta hosili olingan. [9; 21-22 b.].

Tatqiqot uslubi. Tadqiqotlardagi barcha fenologik kuzatuvlar “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” [6] va “Metodika polevyyx opytov s xlopchatnikom” [7], Rijov S.N. Puti povыsheniya plodorodiya oroshayemyx pochv Sr.Azii. Xlopkovodstvo [6] uslubiy qo‘llanmalariga amal qilingan holda olib borildi. Hosildorlik ko‘rsatkichlariga B.A.Dospexov (1985) uslubini bilan matematik ishlov berildi.

Tadqiqotimiz 8 ta variantda o‘tkazilib 1,2,3,4 variantlar 70-75-65% tartibda sug‘orilib 2,3 variantlarga Uzbiogumin hamda Immunoaktiv stimulyatorlari bilan ishlov beriladi va 5,6,7,8 variantlar 65-70-60% tartibda sug‘orilib 2,3 variantlarga Uzbiogumin hamda Immunoaktiv stimulyatorlari bilan ishlov beriladi. Butun vegetatsiya davrida 70-75-65% da 4 marotaba sug‘orilib jami 3649,6m³ suv sarflangan bo‘lib, 65-70-60% da 3 marotaba sug‘orilib jami 2844,6m³ suv sarflangan.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.

Ilmiy izlanishlarining natijalariga ko‘ra, g‘o‘zaga stimulyatorlarni chigitga ekish oldidan ishlov berish hamda shonalash, gullash, hosil tugish davrlarida turli sug‘orish tartiblarida qo‘llaganimizda chigitning unib chiqish quvvati, unuvchanligi va hosildorligiga turlicha ta‘sir etadi degan xulosaga kelgan.

G‘o‘zaga beriladigan oziqalar faqat bir xilda (ma‘dan holda) takrorlanaversa yildan-yilga chigit sifati pasayib boradi, shunga muvofiq bargidan suspenziya tarzida stimulyatorlar bilan ishlov berish lozim.


O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

Bizning izlanishlarimizda chigitning unib chiqish dinamikasi va keyingi rivojlanishlariga stimulyatorlarning ta’siri aniqlandi. Izlanishlarimizda ingichka tolali g‘o‘za navini turli muddatlarda sug‘orib mutanosib ravishda o‘zimizda va Turkiyada ishlab chiqarilgan zamonaviy Foral BMO, Ekosil, Brentaks KCA stimulyatorlari me’yorlarining g‘o‘za nihollarining unib chiqish dinamikasiga hamda shonalash, gullash, hosil tugish fazalarida paxta hosildorligiga ta’siri aniqlandi.

Tajribada g‘o‘za chigitiga ekish oldi Uzbiogumin stimulyatori bilan ishlov berganimizda dastlabki kunlar nazoratga nisbatan 3,3% kuproq unib chiqqani aniqlandi. Immunoaktiv stimulyatori bilan chigitga ekish oldidan ishlov bergan variantlarimizda nazoratga nisbatan 3,7% ko‘proq unib chiqqani kuzatildi. Chigitga ekish oldidan stimulyatorlar bilan ishlov berilib ekilgan variantlarda unib chiqishning boshlanishi va kuzatuv davrlaridagi dinamikasi eng yuqori bo‘lganligi aniqlandi va to‘liq unib chiqish davri chigitga ekish oldidan stimulyatorlar bilan ishlov berilmagan variantlarga nisbatan 2-3 kun ilgari bo‘lganligi aniqlandi.

Chigit unib chiqishiga stimulyatorlarning ta’siri, % hisobida, 2025 yil



Tajriba natijasiga ko‘ra chigitga ekish oldidan Uzbiogumin stimulyatori bilan ishlov berilgan variantimizda dastlabgi kunlarda 08.04.2025 yil sanasida 6,1 % ni tashkil qilib nazorat variantga nisbatan 3,3 % ga yuqori chigit unib chiqib, 10.04.2025 yil sanasida 36,2 % ga unib chiqib nazoratga nisbatan 8,4 % ga yuqori chigit unib chiqqani aniqlandi. 12.04.2025 yil sanasida chigitning dala unuvchanligini

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

aniqlaganimizda 76,0 % ni tashkil qilib nazorat varintga nisbatan 11,1 % ga yuqori chigit unib chiqqani kuzatildi. Immunoaktiv stimulyatori bilan ishlov berilgan variantimizda dastlabgi kunlarda 08.04.2025 yil sanasida 6,5 % ni tashkil qilib nazorat variantga nisbatan 3,7 % ga, Uzbiogumin stimulyatori bilan ishlov berilgan variantga nisbatan 0,4 % ga yuqori chigit unib chiqib, 10.04.2025 yil sanasida 37,0 % ga unib chiqib nazoratga nisbatan 9,0 % ga, Uzbiogumin stimulyatori bilan ishlov berilgan variantga nisbatan 0,8 % ga yuqori chigit unib chiqqani aniqlandi. 12.04.2025 yil sanasida chigitning dala unuvchanligini aniqlaganimizda 77,2 % ni tashkil qilib nazorat varintga nisbatan 12,2 % ga, Uzbiogumin stimulyatori bilan ishlov berilgan variantga nisbatan 1,1 % ga yuqori chigit unib chiqqani kuzatildi. Chigitga ekish oldidan stimulyatorlar bilan ishlov berilganda to‘liq unib chiqish muddati va jadalligi boshqa variantda chigitga ekish oldidan stimulyatorlar bilan ishlov berilmagan variantlarga nisbatan 11-12 % ga ustun bo‘ldi.

Xulosa: Chigitga ekish oldidan stimulyatorlar bilan ishlov berilib ekilganda unib chiqishning boshlanishi va kuzatuv davrlaridagi dinamikasi eng yuqori bo‘lganligi aniqlandi va to‘liq unib chiqish davri chigitga ekish oldidan stimulyatorlar bilan ishlov berilmagan variantlarga nisbatan 2-3 kun ilgari va 11-12% ga yuqori bo‘lganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdualimov Sh. G‘o‘za va kuzgi bug‘doyda stimulyatorlarni qo‘llash texnologiyalari // Dexqonchilik tizmidagi ziroatlardan mo‘l hosil yetishtirishning manba va suv tejovchi texnologiyalari. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya ma’ruzalar to‘plami. Toshkent-2010. –B.186-187.

2. Abdualimov Sh. Rezultaty poiska novyx stimulyatorov rosta xlopchatnika // Paxtachilik va donchilik.-Toshkent, 2002. №1. B. 25-26.

3. Abdualimov Sh., Abdullaev F, Xudaykulov T. Hosildor stimulyatorining chigit unib chiqishi va paxta hosiliga ta’siri // Paxtachilikning innovatsion rivojlanishi: nazariy va amaliy tamoyillar xalqaro Paxta kuniga bag‘ishlab o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent, 2021 yil 7 oktabr. -B. 335-338

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

4. Abdualimov Sh.Kh., Qulmurotov B.E EFFECT OF IMMUNOACTIVE STIMULANT ON FIELD GERMINATION OF FINE-FIBER COTTON SEEDS//JMEA Journal of Modern Educational Achievements <https://scopusacademia.org/> Volume 5, 2025y. 326-331 P

5. Qulmurotov B., Lukov M, Tadjiyev K, Johonov S, Amirov X. EFFECTIVENESS OF APPLYING GROWTH REGULATORS TO FINE-FIBER COTTON CULTIVATED UNDER DIFFERENT IRRIGATION REGIMES // An international quarterly journal of lifesciences 20(3): S.I (3), 389-395, 16-08-2025

6. Voxidov S. Vitavaks 200FF va Oksigumatni g‘o‘zadagi samaradorligi // O‘zPITI ning Navoiy filiali hisoboti, 2003. – B. 16-17.

7. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. –Toshkent, 2007. –147 b.

8. Muxammadiyev B., Abdualimov Sh. “O‘stiruvchi moddalarning hosildorlikka ta’siri” // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali. T oshkent, 2007, №1, -B 10-11.

9. Niyazmetov U.X. Effektivnost novyx regulyatorov rosta rasteniy Nitrolina i Uchkuna na xlopchatnike // Avt. Diss. na soiskanie uchenoy stepeni k.s.x.n. Toshkent, 2007, -S 21-22.

10. Хусанов И.Ш. Влияние комплексного применения препаратов Мивал, Пикс, Преп и Кампозан на технологические качества хлопкового волокна в условиях Узбекистана // Ғўза ва кузги буғдойнинг парваришlash агротехнологияларини такомиллаштириш. Мақолалар тўплами. Тошкент, 2003, -Б 197-200.